AVTOMOBIL VOSITALARIGA MAVSUMIY SERVIS XIZMAT KO‘RSATISH TURLARI VA ULARNING XARAKAT XAVFSIZLIGIGA TA’SIRI

M.R.Komilov
Andijon davlat texnika instituti “Avtomobilsozlik va transport”
Kafedrasi stajyor o‘qituvchisi
muhriddinkomilvo775@gmail.com
Te: +99889780494

Annotatsiya. Ushbu maqolada avtomobil vositalariga texnik xizmat ko‘rsatish ya’ni kundalik xizmat ko‘rsatish, birinchi texnik xizmat ko'rsatish, ikkinchi texnik xizmat ko‘rsatish, mavsumiy xizmat ko‘rsatish va ularning avtotransport vositalarining xarakat xavfsizligiga tasiri haqida ma’lumotlar keng yoritilgan. Avtomobillarga texnik xizmat ko‘rsatishda ularning qisim va detallarini qayta tiklash orqali ta’mirlash orqali maxsus jihozlangan ko‘chma yoki turg‘un ustaxonalarda amalga oshirilishi qo‘llab quvvatlanadi va natijada uzoq muddatli texnik xizmat ko‘rsatishga erishiladi.

Kalit so’zlar: Mavsumiy xizmat, ko’rik, buzulish, yo‘l transport hodisasi, detal.

Аннотация. В этой статье подробно рассматривается техническое обслуживание транспортных средств, то есть ежедневное обслуживание, первое техническое обслуживание, второе техническое обслуживание, сезонное обслуживание и их влияние на безопасность движения транспортных средств. При техническом обслуживании автомобилей поддерживается их выполнение в специально оборудованных передвижных или стационарных цехах путем ремонта путем восстановления зажимов и деталей, в результате чего достигается длительное техническое обслуживание.

Ключевые слова: сезонное обслуживание, осмотр, поломка, дорожно-транспортное происшествие, деталь.

Annotation. This article covers a wide range of information about vehicle maintenance i.e. day-to-day service, first maintenance, second maintenance, seasonal service and their impact on vehicle safety. In the maintenance of cars, their implementation in specially equipped portable or stationary workshops is supported by the restoration of parts and details, and as a result, long-term maintenance is achieved.

Keywords: Seasonal service, inspection, demolition, traffic accident, detail.

Kirish

Avtomobildan tejamkor va xavfsiz foydalanish, va uni yaxshi holatida saqlab turish uchun, avtomobilga texnik xizmat ko'rsatilishi (TXK) belgilangan davriylikda bajarilishi kerak. Texnik xizmat ko`rsatishning bajarilishi servis

ISSN 3030-3907

kitobchasidagi yozuv bilan tasdiqlanadi. Uning sanasi va o`tilgan yo`l texnik xizmat ko`rsatish stansiyasining muhri va imzo bilan tasdiqlanadi. Texnik xizmat ko`rsatishdan tasdiqlangan holda o`tish kafolat majburiyatlari va boshqa majburiyatlar bajarilishining majburiy sharti bo`lib, avtomobilning sotilishida hisobga olinadi, shuning uchun servis kitobchasi to`g`ri to`ldirilishini nazorat qiling [1,2].

1. Texnik sharoitlarga asosan ma'lum bir ketma-ketlikda ish va operatsiyalarni bajarishga texnologik jarayon deyiladi.

TXK va JT texnologik jarayonini amalga oshirishdan maqsad avtomobillarni texnik tayyor holatda ushlab turishdan iborat.

Ishlarni ratsional ketma-ketlikda bajarish uchun texnik xujjatlardan, ya'ni texnologik xaritalardan, zavod ko'rsatmalaridan, texnik shartlardan foydalaniladi [3].

TXK va JT texnologik jarayoni ishchi postlarida va ish joylarida bajariladi.

Ish joyi deb - ma'lum bir ishni bajarish uchun texnologik uskunalar, yordamchi jihoz va asboblar bilan jihozlangan bir ishchining mehnat qilish muxiti tushuniladi.

Ishchi posti deb - TXK jihozlari, yordamchi uskunalar va avtomobil uchun joy bilan jihozlangan va bir yoki bir necha ish joylaridan iborat bo'lgan muhit tushiniladi.

TXK va JT texnologik jarayonini bajarishda ATK ning ICHTB sida texnologik va operatsion xaritalar, post xaritalari, xarita-sxemalar TXK uchun qo'llanma, JT uchun qo'llanma va boshqa turdagi xujjatlar ishlatiladi.

2. Avtomobillarga TXK texnologik jarayonlarini tashkil qilish. TXK texnologik jarayoni va uni tashkil qilish ish rejalarini o'z vaqtida bajarish uchun kerak bo'lgan ishchi postlari va joylarning soni bilan aniqlanadi [4].

TXK ishlarini bajarilishi va taqsimlanishi uchun kerak bo'lgan ishchi postlari, ularning soniga va tashkil etilishiga asosan, universal va maxsus turlarga bo'linadi. Bu ishchi postlari o'z navbatida, boshi berk va boshi ochiq bo'lishi mumkin. qulayligiga qarab ketma-ket yoki parallel joylashadi.

Maxsus postlarning ketma-ketlikda joylashishi oqimli qatorni tashkil etadi.

Universal postlarda TXK ni tashkil qilish. Bu usulda, TXK dagi barcha ishlar bir postda bir guruh maxsuslashgan yoki universal ishchilar yordamida amalga oshiriladi. Texnologik jarayonni boshi berk yoki boshi ochiq ishchi postlarida tashkil qilinadi. Boshi berk postlar asosan 1-TXK va 2-TXK da, boshi ochiq postlar esa KXK da qo'llaniladi [6,7].

Bu usulni kamchiligi avtomobillarni postlarga qo'yish va olishda vaqtning ko'proq ketishi, atrof-muhitni ifloslanishi va universal ishchilar ishlaganda, ko'proq ish haqi to'lanishidan iborat.

ISSN 3030-3907

TXK ni maxsus postlarda tashkil qilish. TXK ni maxsus postlarda bajarishni tashkil qilish, TXK dagi barcha ishlarni maxsus postlarga bo'lib yuborish va shu postlarda maxsus mutaxasislikka ega bo'lgan ishchilarni ishlashidan iboratdir. Bu vaqtda har bir post o'ziga yarasha uskuna va jihozlar bilan ta'minlanadi, hamda barcha ishlar oqimli yoki operatsion-post usulida tashkil etiladi [8].

Oqimli usulda postlar ketma-ket yoki yonma-yon joylashishi mumkin. Bu usulda asosiy shartlardan biri avtomobilni har bir postda bir xil vaqtdan bo'lishi kerakligidir.

Bunday postlarning yig'indisi oqimli qatorni tashkil etadi. TXK jarayonini bunday tashkil qilish usulida, avtomobilni postdan postga o'tish vaqti kamayadi, egallanadigan ishlab chiqarish maydoning yuzasi kamayadi va konveyr qo'llash imkoniyati tug'iladi.

Bu usulning kamchiligi postlarda bajariladigan ish hajmini o'zgartirish mumkin emasligi va qo'shimcha ishchilarni ushlab turish (ish hajmining oshishini inobatga olib) mumkin emasligidadir. Oqimli qatorlar to'xtovsiz oqimli qator va to'xtab-to'xtab harakatlanuvchi oqimli qator kabi turlarga bo'linadi [9].

To'xtovsiz oqimli qatorda TXK, avtomobil postdan-postga to'xtovsiz harakatlanib turishida amalga oshiriladi. Bu usul asosan KX da qo'llaniladi. Bunda konveyr tezligi Vk=0,8-1,5 m/min, avtomobillar orasidagi masofa U=1,2-4 m ni tashkil etadi.

To'xtab-to'xtab harakatlanuvchi oqimli qator deb, avtomobilga TXK da konveyrning to'xtab turishi va postdan-postga o'tishida harakatlanishi tushiniladi. Bu usulni KXK da qo'llab bo'lmaydi, chunki KXK da mexanizatsiyalanish va avtomatlashtirilgan moslamalar qo'llaniladi hamda bu erda tezligi 10 - 15 m/min bo'lgan konveyrlar qo'llaniladi. Ishchi posti uzunligi Li.p = La + U, m ga, ya'ni La-avtomobil uzunligining va ikki avtomobil orasidagi masofaning(U) yig'indisiga teng bo'ladi [10].

Avtomobil transporti harakatdagi tarkibiga TXK va T to‘g‘risidagi Nizom»ga ko'ra, harakatdagi tarkibga TXK ishlari bajarilish davri va mehnat hajmiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

- kundalik xizmat ko‘rsatish — KXK;
- birinchi texnik xizmat ko'rsatish — 1-TXK;
- ikkinchi texnik xizmat ko‘rsatish — 2-TXK;
- mavsumiy xizmat ko‘rsatish — MXK.

KXK ishlari harakat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan nazorat, tashqi ko‘rinishni tegishlicha tozalash, yonilg‘i quyish, moy va sovitish suyuqliklarini me’yoriga keltirish, maxsus avtomobillarning kuzovlariga sanitariya qoidalariga ko‘ra ishlov berishdan iborat bo‘lib, bu ishlar harakatdagi tarkib safardan

ISSN 3030-3907

qaytgach bajariladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Dastlab biz avtomobilning mavsumiy ko‘rigini ko‘rib chiqamiz. Avtomobilning mavsumiy ko‘rigining asosiy vazifasi — avtomobilni yilning sovuq yoki issiq faslidagi foydalanish sharoitlariga tayyorlashdir. Avtomobilning mavsumiy ko‘rigi keskin sovuq tushishi paytlarida majburiy tartibda o‘tkazilishi kerak, shinalari keskinroq ob-havo sharoitida foydalanishga yaroqli turiga almashtirilishi lozim, avtomobilning sovutish tizimini ko‘zdan kechirish, hamda uning germetikligini tekshirish kerak, zarur bo‘lganda sovutish tizimini almashtirish lozim. Qishga tayyorgarlik ko‘rganda, ishga tushirish isitgichining holatini tekshirish, va moyni almashtirish kerak, oyna tozalagichning bakidagi suvni muzlamaydigan suyuqlikka almashtirish lozim. Har qanday avtomobilning mavsumiy ko‘rigini yiliga ikki marta o‘tkazish kerak.

Nazorat ko‘rigi avtomobilning egasi tomonidan yo‘lga tushishdan avval. Va uzoq safarlarning paytida o‘tkaziladi. Uzoq safarlarning paytida, quyida ko‘rsatilgan ishlarni kamida, har bir 500 km yo‘l o‘tilganidan keyin bajarilishi kerak.

Mavsumiy servis xizmat ko’rsatish yiliga ikki marta o‘tkaziladi va yilning sovuq hamda issiq vaqtida harakatdagi tarkibni ishlatishga tayyorlash ishlaridan iborat. Bizning sharoitda Mavsumoy servis xizmat ko’rsatishni 2-TXK bilan birga o'tkazish va ishni 50 % ga oshirish tavsiya etiladi. Qo‘shimcha ravishda kundalik xizmat ko‘rsatish vaqtida bollonlardagi kondensatlar to‘kiladi, kuz va qish vaqtlarida nam ajratgichdagi suyuqlik sathi tekshiriladi. Mavsumiy xizmat davrida bosim sozlagichdagi filtr kerosin bilan yuviladi va mavsum kirishiga nam ajratgich tayyorlanadi (harorat +5°C dan pasayganda, nam ajratgich ushlagichini yuqori holatiga qo‘yiladi)[5].

Gidroyuritmali tormoz tizimiga ega bo’lgan avtomobillarga texnik xizmat ko‘rsatishda БСК (TU -6-10-1553-75) va НЕВА (TU 6-09-550-73) turidagi hamda xorijiy firmalarda ishlab chiqarilayotgan tormoz suyuqliklari (Д О Т —2, Д О Т —3 va boshqalar) dan keng foydalanilmoqda. BSK suyuqligi kanakunjut moyi (47 %) va butil spirti (53 %) dan hamda qizil rang beruvchi organik moddadan tayyorlanadi. Uning kamchiligi 15°C dan past va 25°C dan yuqori haroratda oquvchanligini yo‘qotishidadir. «НЕВА» turkumidagi tormoz suyuqliklari etilkarbitol suyuqligi asosida bo‘lib, quyuqlashtiruvchi va zanglashga qarshi qo‘shimchalardan tarkib topgan bo‘ladi. Bu suyuqliklarni bir-biriga qo‘shib ishlatish man qilinadi.

ISSN 3030-3907



1-rasm. Kolodka va tormoz barabani orasidagi tirqishni sozlash shakli:

Servis xizmat ko`rsatish quyidagilardan iborat

I. TASHQI KO‘RIK

1. Shinalardagi havoning bosimini va shinalarda shikastlanish izlarining yo‘qligini tekshiring;
2. G‘ildiraklarni mahkamlash boltlarining mustahkam tortilganligini tekshiring;
3. Jihozlanish va signalizatsiya asboblarining sozligini tekshiring;
4. Moy, sovituvchi suyuqlik, yonilg‘i va tormoz suyuqligining oqishi izlarining yo‘qligini tekshiring.

II. ICHKI KO‘RIK

1. Lyuftning kattaligini va rul g‘ildiragining mahkamlanishini tekshiring tekshiring;
2. To‘xtatib turish tormozi dastagining yurishi kattaligini tekshiring;

Ovozli signal, old oynaning oyna tozalagichlari va burilish ko‘rsatkichlarining sozligini tekshiring;

3. Avariyali yorug‘lik signalizatsiyasining sozligini tekshiring (bunda o‘t oldirish qulfidagi kalit I holatida bo‘lishi lozim);
4. Asboblar panelida joylashgan nazorat-o‘lchov asboblarining sozligini tekshiring.
5. Bakdagi yonilg‘ining sathini ko‘rsatkichiga qarab tekshiring.
6. Orqa ko‘rish oynalarining sozlanishini tekshiring, zarur bo‘lganda sozlanishini amalga oshiring.
7. Eshik qulflarini bloklash mexanizmlarining sozligini tekshiring.
8. Ilashish muftasi pedalining erkin yurishi kattaligini, pedalning boshlang‘ich holatini va ilashish muftasini boshqarish yuritgichining ishlashini tekshiring..

III. DVIGATEL BO‘LIMI

1. Dvigateldagi moyning sathini tekshiring;

ISSN 3030-3907

2. Kengaytirish bakidagi sovituvchi suyuqlikning sathini tekshiring;
3. Akkumulyator batareyasining holatini tekshiring;
4. Oyna tozalagichning bakidagi suyuqlikning sathini tekshiring;
5. Asosiy tormoz silindri va ilashish muftasining gidroyuritgichi bakidagi ish suyuqligining sathini tekshiring;
6. Rul boshqaruvi gidrokuchaytirgichining bakidagi ish suyuqligining sathini tekshiring

Xulosa

Xulosa o'rnida avtomobillarning ta'minot yoki o't oldirish tizimi nosozligi, chiqarilayotgan chiqindi gazlar tarkibidagi zaharli gazlar miqdorini 2—7 barobar oshishiga olib keladi. Eski va nosoz avtomobillardan foydalanish, o'z navbatida ruxsat etilgan shovqin balandligini 15—20 % ga oshiradi. Va nihoyat, nosoz avtomobillar yo'l-transport hodisalari sodir bo'lishini ko'paytiradi, bu bilan insonlarga tan jarohati etkazilib, tabiatga putur etkaziladi. Shu nuqtai nazardan Mavsumiy texnik servis xizmat ko'rsatishga jiddiy e'tibor qaratish yo'l transport hodisalrini oldini olishda muhum o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hamroqulov O., Magdiyev Sh.P. Avtomobillarning texnik ekspluatatsiyasi. T.,«Adolat», 2005.

2. Адилов, О.К.,Умиров,И.И.,&Уразов,Б.А.(2020). МЕТОДИКА ОПРЕДЕЛЕНИЯ ДЕТАЛЕЙ, КРИТИЧЕСКИХ ПО НАДЕЖНОСТИ АВТОМОБИЛЕЙ. *Academic research in educational sciences*, (1).

3. Адилов,О.К.,Умиров, И. И. Ў., & Барноев, Л. (2020). ТРАНСПОРТНИ ҲАВФСИЗ БОШҚАРИШ КЎРСАТКИЧЛАРИНИ БАҲОЛАШ. *Academic research in educational sciences*, (1).

4. Адилов, О.К., Джиянбаев, С.В.,Каршибаев, Ш.Э.,Кулмурадов, Д.И.,& Самиев,Х.Х.(2015). Вторичные продукты масложирового производства. *Молодой ученый*, (2), 118-121.

5. Baxtiyorovich, A.I.,& Ogli, R. U. F.(2021).YENGIL AVTOMOBILLARDA YOQILGI SARFINI KAMAYTIRISH USULLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *1*(1).

6.Hurmamatov A. M., Hametov Z. M. Results of preparation of oil slime for primary processing //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – Т. 10. – №. 5. – С. 1826-1832.

7.Маматов, Ф. М., Файзуллаев, Х., Эргашев, И. Т., & Мирзаев, Б. С. (2012). Определение тягового сопротивления почвоуглубителя с наклонной стойкой. Международная агроинженерия, 42.

ISSN 3030-3907

8.Imamovich, B. B., Nematjonovich, A. R., Khaydarali, F., Zokirjonovich, O. O., & Ibragimovich, O. N. (2021). Performance Indicators of a Passenger Car with a Spark Ignition Engine Functioning With Different Engine Fuels. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 6254-6262.

9. Рузибаев, А. Н., Обидов, Н. Г., Отабоев, Н. И., & Тожибаев, Ф. О. (2020). ОБЪЕМНОЕ УПРОЧНЕНИЕ ЗУБЬЕВ КОВШЕЙ ЭКСКАВАТОРОВ.
Universum: технические науки, (7-1 (76)).

10. Abdukhalilovich, Ikromov Ikboljon, and Javlon Akhunov Abdujalilovich. "Description Of Vehicle Operating Conditions And Their Impact On The Technical Condition Of Vehicles." The American Journal of Applied sciences 2.10 (2020): 37- 40.

ISSN 3030-3907